

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlariga hujjatlar qabuli jarayonlari mavzusida bo‘lib o‘tgan matbuot anjumani yuzasidan

PRESS – RELIZ

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimida bugungi kunda 14 ta Prezident maktabi, 9 ta ijod maktabi hamda 182 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Ushbu maktablarga o‘quvchilar qabuli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-maydagi 214-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomlar asosida tashkil etiladi.

2024-2025-o‘quv yili uchun Agentlik tizimidagi maktablarga o‘quvchilar hujjatlarini qabul qilish hamda kirish imtihonlarini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi tegishli bayoni tasdiqlandi.

Bunga ko‘ra,

Agentlikda o‘quvchilar qabuli jarayoni monitoringini yuritish hamda muvofiqlashtirish uchun malakali mutaxassislardan iborat shtab tashkil etildi.

O‘quvchilarning hujjatlarini onlayn shaklda qabul qilish, shuningdek, o‘quvchilar va ularning ota-onalarini qiziqtirgan savollarga javob berish uchun Agentlik tizimidagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda hamda hududlardagi barcha Prezident maktablarida har kuni soat 9:00 dan 19:00 gacha ishlaydigan Murojaatlar markazi (call-center) faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Fuqarolar murojaatlar markazi bilan 1206 qisqa raqami orqali bog‘lanishlari mumkin.

Shuningdek, maktablarga hujjatlar qabuli joriy yilning 1-20 iyun kunlarida hamda kirish imtihonlari iyul oyida o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Prezident maktablarining 5-sinfiga belgilangan yillik qabul kvotasi doirasida 336 nafar, ijod maktablarining 7-sinfiga 400 nafar hamda ixtisoslashtirilgan maktablarning 5-sinfi (aniq fanlar yo‘nalishi)ga va 7-sinfi (tabiiy fanlar yo‘nalishi)ga 7 960 nafar o‘quvchilar qabul qilinadi.

Tizimdagisi maktablarga o‘quvchilarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari tomonidan hujjatlar onlayn shaklda Agentlikning rasmiy ariza.piima.uz veb-sayti orqali qabul qilinadi.

Talabgorlar faqat ta’lim olayotgan maktabining hududida, ya’ni viloyatida joylashgan Prezident maktabi hamda ixtisoslashtirilgan maktablarga hujjat topshirishi mumkin (tayanch ixtisoslashtirilgan maktablar bundan mustasno).

Hujjat topshirish jarayonida ularga ixtiyoriy ravishda o‘z hududidagi ixtisoslashtirilgan maktablardan birini qo‘sishimcha tanlash imkoniyati beriladi.

Bunda, Prezident maktabi kirish imtihonining 2-bosqichida muvaffaqiyatlari ishtirot etib, o‘qishga kira olmagan o‘quvchilar hududdagi o‘zi tanlagan ixtisoslashtirilgan maktabga belgilangan kvota doirasida, to‘plagan ballari ketma-ketligi bo‘yicha imtihonsiz qabul qilinadi.

Shuningdek, ro‘yxati Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan xalqaro, mintaqaviy yoki asosiy fan olimpiadalarining uchinchi (viloyat) bosqichi yoki unga tenglashtirilgan bosqichida matematika, informatika, fizika, kimyo, biologiya fanlaridan g‘olib va sovrindor bo‘lib, 1-, 2-, 3-o‘rnlarni egallagan umumiyligi o‘rtasi, o‘rtasi maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari o‘zi ta’lim oladigan hududdagi ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul kvotasi doirasida kirish imtihonisiz qabul qilinadi;

4-sinfni tamomlagan o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida hududidagi Prezident maktabi, ixtisoslashtirilgan maktab va Toshkent shahridagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 5-sinfiga;

6-sinfni tamomlagan o‘quvchilar hududidagi ixtisoslashtirilgan maktab yoki maktab-internatining tabiiy fanlar yo‘nalishiga, Mirzo Ulug‘bek nomidagi yoki Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 7-sinfiga ham alohida hujjat topshirishlari mumkin.

Joriy o‘quv yilida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Samarqand viloyatlarida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning filiallari tashkil etildi. Ushbu maktablarga 2024-2025-o‘quv yili uchun faqat shu hududda istiqomat qiluvchi talabgorlarning hujjatlari qabul qilinadi. Bu kabi maktablar kelgusi yillarda bosqichma-bosqich barcha hududlarda tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Prezident maktablariga umumiyligi o‘rtasi ta’lim muassasalarining 4-sinf bitiruvchilari orasidan qobiliyatli va iqtidorli, baholar tabeli asosida matematika va tabiatshunoslik fanlaridan o‘quv yilini a’lo, ya’ni 5 baholarga tamomlagan o‘quvchilarning hujjatlari qabul qilinadi.

Ijod, ixtisoslashtirilgan maktablarga hujjat topshirish jarayonida baholar tabelida a’lo baholarning bo‘lishi talab etilmaydi.

I. Prezident maktablarining kirish imtihonlari ikki bosqichda quyidagi fanlardan o‘tkaziladi:

birinchi bosqich — matematika fanidan jami 30 ta test shaklida o‘tkaziladi.

Birinchi bosqich natijasiga ko‘ra qabul kvotasida belgilangan har bir o‘ringa 20 nafar talabgor, har bir mакtabda 480 nafar maksimal ball to‘plagan o‘quvchilarga ikkinchi bosqichda ishtirok etishga ruxsat etiladi.

Ikkinci bosqich — tanqidiy fikrlash va muammoni yechish jami 40 ta, ingliz tili fanidan 40 ta test shaklida o‘tkaziladi.

II. Ixtisoslashtirilgan maktablarga kirish imtihonlari yo‘nalishlar bo‘yicha bir bosqichda quyidagi fanlardan test shaklida o‘tkaziladi:

aniq fanlar yo‘nalishiga matematika va ingliz tili fanlaridan,

tabiiy fanlar yo‘nalishiga science va ingliz tili fanl